

O'QUVCHILARGA BADIY MATNNI TUSHUNISH TEXNIKASINI O'RGATISH USULLARI

Tillayeva Rayxona Tuxtasinovna,

*Namangan davlat pedagogika instituti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent e-mail: rayxona_tillayeva_05@mail.ru, +998-94-153-11-13*

ORCID: 0000-0002-0018-5530

Annotatsiya: Amaliyotda adabiyot o'qitishdan bosh maqsad ma'naviy yetuk, estetik jihatdan sezgir shaxsni tarbiyalash, degan fikr qayta-qayta ta'kidlanadi. Bunda kitobxonni tarbiyalash maqsadi emas, balki badiiy adabiyot orqali uning zamiridagi ma'naviy boylikni o'zlashtirish vositasi, yo'li ham muhim hisoblanadi. Shaxs intellektual kamoloti samaradorligiga qaratilgan ilmiy tadqiqotchilik faoliyati o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy qobiliyati, erkin fikrlashi, faolligi va mustaqilligini, bir so'z bilan aytganda, kognitiv faolligini oshirishga xizmat qiladi. Kichik tadqiqotlar olib borish o'quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi, asosli javob topish jarayonida noto'g'ri vaziyatlarni xotirjamlik bilan hal etish qobiliyati, masalaga xolis munosabatda bo'lish ko'nikmasini shakllantiradi. Natijada o'quvchilarda masalaga nisbatan e'tiborli bo'lish, aniqlik, murakkab vaziyatlarda voqealarni obyektiv baholash ko'nikmalari va ijodkorlik sifatleri rivojlantiriladi. Maqolada mazkur jihatlar xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Adabiyot, san'at turi, o'quv fani, so'z san'ati, idrok, adabiy kompetensiya, badiiy matn, nutq, muloqot.

METHODS OF TEACHING STUDENTS THE TECHNIQUE OF UNDERSTANDING ARTISTIC TEXT

Abstract: In practice, the idea that the main goal of teaching literature is to educate a spiritually mature, aesthetically sensitive person is repeatedly emphasized. In this regard, not only the goal of educating a librarian is considered important, but also the means and path to mastering the spiritual wealth inherent in him through literary works. Scientific research activities aimed at the effectiveness of the intellectual development of a person serve to increase the logical and creative abilities of students, their free thinking, activity and independence, in a word, cognitive activity. Conducting small research develops logical thinking in students, the ability to calmly resolve incorrect situations in the process of finding a reasonable answer, and the ability to be objective in the problem. As a result, students develop attentiveness to the problem, accuracy, the ability to objectively assess events in complex situations, and creative qualities. The article discusses these aspects.

Keywords. Literature, art form, academic discipline, word art, perception, literary competence, literary text, speech, communication.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ТЕХНИКЕ ПОНИМАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА

Аннотация: На практике неоднократно подчеркивается мысль о том, что главная цель преподавания литературы — воспитание духовно зрелой, эстетически чуткой личности. В этой связи важным представляется не цель воспитания библиотеки, а скорее средство и путь усвоения заложенного в ней духовного богатства посредством литературы. Научно-исследовательская

деятельность, направленная на эффективность интеллектуального развития личности, служит повышению логических и творческих способностей учащихся, свободе мышления, активности и самостоятельности, одним словом, познавательной активности. Проведение небольших исследований развивает у учащихся логическое мышление, умение спокойно разрешать некорректные ситуации в процессе поиска обоснованного ответа, умение подходить к проблеме объективно. В результате у учащихся развиваются внимание к деталям, точность, способность объективно оценивать события в сложных ситуациях и креативность. В статье рассматриваются эти аспекты.

Ключевые слова. Литература, вид искусства, учебная дисциплина, словесное искусство, восприятие, литературная компетентность, литературный текст, речь, коммуникация.

KIRISH

Ma'lumki, kommunikativ munosabatlarga kirishuvchan, o'qish turlarini o'zlashtirgan, turli manbalardan zarur ma'lumotlarni ola biladigan, matn mavzusi va g'oyasi, undagi qo'shumcha ma'lumotlarni aniqlash va idrok etish ko'nikmalariga ega shaxs jamiyatda munosib qadrlanadi. Rus olimasi S.L.Lvovanning fikricha, "Kundalik, shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotda turli yo'llar bilan olingan matn ma'lumotlarin ajratish, tushunish, uzatish va ularni samarali ishlatish shaxsning o'zini o'zi boshqarish qobiliyati deb tushuniladigan funksional savodxonlikni shakllantirishdir". Shu nuqtayi nazardan yondashilganda, matn ustida ishlash adabiy ta'limdagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Zero, har qanday bilim va faoliyat usullarini tushunmasdan o'zlashtirish o'quvchilar uchun foydali hisoblanmaydi. Ular bilim va madaniyatning asosiy tashuvchilari bo'lib, jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga hissalarini qo'shishadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyotni fan sifatida o'qitish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu jihatlar o'quvchilar tomonidan san'at asarini idrok etishda namoyon bo'ladi. Ularning fikrlashlari ma'lum bir tanlangan mavzu uchun xos bo'lgan xususiyatlar bilan belgilanadi, shuning uchun mazkur jarayonda kontekstga tayaniladi.

O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasida mazkur masala U.Dolimov, A.Zunnunov, Q.Yo'ldoshev, S.Matchonov, M.Mirqosimova, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, V.Qodirov, E.Abduvalitov, N.Yo'ldoshevalarning tadqiqot ishlarida, asosan, adabiyot o'qitishda yangilangan pedagogik tafakkur, o'quvchilarning adabiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil ishlarni tashkil etish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, mumtoz asarlarni o'rganish, vatanparlik ruhida tarbiyalash, adabiyotni qiyosiy yo'sinda o'rganish muammolari doirasida tahlilga tortilgan.

Adabiyotshunoslik, germenevtika, adabiyot o'qitish metodikasi yutuqlari asosida badiiy asarda muallif pozitsiyasi konsepsiyasini ishlab chiqishning metodik tizimi nazariy jihatdan asoslangan. U o'z ichiga tayyorgarlik (idrok etishga tayyorgarlik va asarni tushunish), nazariy (adabiy-nazariy tushunchalarni tahlil qilish), shakllantirish (badiiy matn bilan ishlashda muallif pozitsiyasi konsepsiyasini ishlab chiqish,

mikrokontekstlarni tahlil qilish algoritmi) va umumlashtirish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga olishi olimlar tomonidan maxsus tadqiq etilgan.

Bu borada ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, badiiy asarlar, xususan, epik asarlarda muallif o'rnini tushunish muammosi rus metodistlari A.M.Antipova, G.I.Belenkiy, O.Yu.Bogdanova, G.A.Gukovskiy, S.A.Zinina, T.F.Kurdyumova, S.A.Leonova, M.A.Ribnikova, L.I.Petriyeva, M.A.Snejnovskaya, V.F.Chertov kabi olimlar tomonidan adabiy ta'limning boshqa masalalari bilan birgalikda ko'rib chiqilgan.

"Muallif pozitsiyasi" tushunchasi L.A.Zabrodina, V.A.Limerova, V.G.Maransman, N.Ya.Meshcheryakova, I.V.Rogojinalarning tadqiqotlarida alohida metodik muammo sifatida o'rganilgan.

Badiiy asarda muallif dunyoqarshining namoyon bo'lishi muammolariga doir adabiy tadqiqotlar M.M.Baxtin, S.A.Baikova, N.S.Valigina, V.V.Vinogradova, V.E.Xalizinalar olib borilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'quvchilarning matn ustida ishlash ko'nikmasini rivojlantirishda kognitiv ta'lim vositalaridan biri sanalgan o'qishni yaxshilash samaradorlik omilidir. Bu borada badiiy matn mazmunini tushunishga doir o'qish texnikasini o'rgatish muhim sanaladi. Professor S.Matchonovning fikricha, "Badiiy asarni o'qish hali hech narsani anglatmaydi. Eng muhimi, nimani o'qish va o'qiganini qanday tushunishdir. Demak, kitobxonlik o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o'qish, ya'ni maqsadli o'qishdir". Bizningcha, savodli kitobxon o'quvchini kamol toptirishda adabiyot o'qituvchisining o'ni alohida bo'lib, u badiiy asar mazmuni va shakli ustida ish olib borishni rejalashtiradigan, unga doir samarali usullarni tanlay biladigan va ta'lim jarayonida qo'llaydigan yagona subyektdir.

Adabiyot o'qituvchisi alohida topshiriqlar tizimi orqali matnni tushunish darajasini aniqlashga imkon beradigan asar mavzusi, g'oyasi, muammosi va muallif nuqtayi nazarini aniqlash malakalarini rivojlantiradi. Matn mavzusi yoki g'oyasini aks ettirishga doir sarlavha tanlash, reja tuzish, o'qiganini tushunish mashqlari shular jumlasidandir. Qayd etilganlar doimo ijobiy natijalarni ta'minlamasligi mumkin. Tajribalarimizda o'quvchilarning matn ustida ishlash ko'nikmalari yetarli emasligi, o'qiganlari mazmunini tushuna olmasliklari ma'lum bo'ldi. Bizningcha, bu boradagi muvaffaqiyatsizliklarning asosiy sabablaridan o'qituvchilarning aksariyati boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish malakalari shakllangan va matn bilan ishlash jarayonida o'qish savodxonligi o'z-o'zidan sodir bo'ladi deb o'ylashlari natijasidir.

Matn ustida ishlash haqida so'z borganda, adabiyot o'qituvchisi ko'pincha savol-topshiriqlar bilan cheklanadi. Matn mazmunini tushunish, matn mavzusini shakllantirish, matn g'oyasi ustida ishlash usullariga e'tibor bermaydi. Shuningdek, matn ma'lumotlarini qayta ishlash:

matnga savollar berish, sarlavhasini tahlil qilish, ajratib ko'rsatish, lug'at ustida ishlash, kalit so'zlar, matnni fasllarga bo'lish, semantik qismlar, konseptual jummalarni ajratib ko'rsatish; matnni qisqartirish, tasviriy ifoda vositalarini tahlil qilish; o'qishni o'rganish taktikasi: matn rejasini tuzish, matn bilan dialog, matnning semantik xaritasini tuzish kabilar nutq va tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ularni faol ravishda bajarish ehtiyojini uyg'otish maqsadga muvofiq. Metodist S.Kambarovanning fikricha, "badiiy asarlarni o'rganishda o'quvchilarning matn mazmunini sayoz yoki yuzaki tushunish holatlari kuzatiladi. Bunga olimlar tomonidan epifenomenal tushuncha deb nom beriladi. Tushunmasdan tushunish tarzida baholanadigan mazkur holatda o'quvchi matn mazmunini tushungandek ko'rinsa ham, aslida buning aksidir. U chuqur mushohada qilmaydi, tushunishga intilmaydi ham, faqat o'z fikrini butun asar kontekstidan olingan misollar orqali ifodalashga harakat qiladi".

Adabiy ta'limda turli xil o'qish strategiyalarini qo'llash zarurati mavjud. Maktab davrida va kelgusi kasbiy jarayonida faoliyatining asosini tashkil etuvchi o'qishni o'rganish strategiyasida zamonaviy shaxs o'zlashtirishi zarur sanalgan matn bilan tanishish, ko'rish va izlash strategiyalari belgilangan. Ko'rinadiki, o'quvchilar matn bilan ishlash jarayonida matnni tushunish usullaridan ongli ravishda foydalanishga o'rgatish muammosi dolzarbdir.

Zamonaviy savodli kitobxonni kamol toptirishda o'quvchilarni axborot oqimida harakatlanishga va turli manbalardan zarur ma'lumotlarni ola bilishga yo'naltirish zarur. Buning uchun badiiy matn ustida ishlash tizimini yaratish, axborotni qayta ishlash va ularni o'qishning individual taktikasiga kiritish, har xil turdagi matnlardan foydalanish zarur. Shuningdek, mazmunli o'qishning ahamiyatini anglatishda o'quv jarayonini subyektiv yondashuvga asoslash, unga ko'ra o'quvchi o'z individual qobiliyati va qiziqishlari bilan darsning markazida bo'lishiga erishish samaralidir.

Ta'lim oluvchilarning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish intellektual salohiyatini rivojlantirish asosidir. "Mutolaa madaniyatini shakllantirish zarurati o'quvchilarning adabiyotdan qandaydir yangilikni bilib olishi bilangina bog'liq emas. Mustaqil mutolaa jarayonlari milliy o'zlikni, hayotning tub mohiyatini anglatish, fuqarolik burchi va axloqiy nuqtayi nazarini mustahkamlash kabi mushtarak maqsadlar yo'lida takomillashib, ijtimoiy-axloqiy va estetik ideallarni o'zida aks ettiradi".

Jahonda axborot oqimi ortib borayotgan va uni o'zlashtirish texnikasi tobora o'zgarayotgan globallashuv sharoitida matn ustida ishlash bilish va rivojlanishning omili sanaladi. Turli janrdagi

matnlarni o'qish qobiliyatini rivojlantirishga shaxsning axborot madaniyati, kasbiy va shaxsiy rivojlanishi hamda dunyo bilan muloqot o'rnatish sharti sifatida qaraladi. Matn ustida ishlash muammosini hal qilishda matndagi aniq va yashirin ma'lumotlarni aniqlash va ular bilan ishlash kabi axborot o'qishni rivojlantirishga doir yondashuvlarni qo'llash muhim sanaladi.

Adabiy ta'limning boshlang'ich bosqichida semantik o'qish strategiyalari yetakchilik qiladi. So'nggi paytlarda "axborot bilan ishlash madaniyati" va "badiiy matnni o'qish madaniyati" tushunchalarini qo'llashda turlichalik kuzatiladi. Aksariyat hollarda kitobxonlik madaniyati axborot-bibliografik savodxonlik bilan belgilanadi hamda o'qishning o'ziga xos usuli va samaradorlik omili sifatida qaralmaydi.

Axborotlashuv davrida mumtoz asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishning susayishi, "formualalar adabiyoti" (detektiv, fantastik)ga qiziqishlari ortishi o'quvchilarning o'qish madaniyati rivojiga ta'sirini ko'rsatmoqda. Asrlar davomida to'plangan adabiy meros zamonaviy multimedia texnologiyalari dunyosida "erib ketmasligi" uchun zamonaviy o'quvchi nafaqat axborot va funksional savodxonlikka, balki ma'naviy-estetik manba sifatida badiiy matnni o'qish madaniyatiga ham ega bo'lishi, adabiy va badiiy bo'lmagan madaniy matnlarni o'qish strategiyalarini farqlashni o'rganish kerak.

Boshlang'ich ta'lim badiiy matnni o'qish madaniyatini shakllantirish uchun qulay davr hisoblanadi. Bu ezgulik va yovuzlik, inson, tabiat, san'at va hayot haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishga chambarchas bog'liq.

"O'qish savodxonligi" tushunchasi bugungi kunda sotsiologiya, kutubxonashunoslik, pedagogika, informatika kabi turli sohalarda faol qo'llaniladi.

Ilmiy o'qish madaniyati va badiiy adabiyotni o'qish madaniyatini bir-biridan ajratib, sezilarli farqlarga qaramay, ular bir-birini to'ldiradi va parallel ravishda boradi. O'qish san'ati kabi o'qish madaniyatining tarkibiy qismi muallif va o'quvchi o'rtasidagi dialog yoki estetik faoliyat hisoblanadi va uning maqsadi o'qishni shakllantirishdir.

O'qish madaniyati deyilganda nimani tushunish kerakligini ilmiy jihatdan aniqlash vazifasi turadi. Ushbu kontsepsiyaning ikki tomonlama tabiati (metodik jihatdan) masalasi e'tiborsiz qolmoqda: avvalo, o'qish kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga qaratilsa, ikkinchidan, u o'qish faoliyatiga asoslanishi va natijani aks ettirishi zarur. Agar o'qish madaniyati o'quvchining individual va yosh xususiyatlariga, har bir davrga xos badiiy asarni talqin qilish modellariga muvofiq o'qish jarayonini muayyan tarzda tartibga soluvchi faoliyat usuli sifatida yuzaga kelsa bu ikki tomonlama yo'qoladi.

Mutolaa madaniyatini rivojlantirishga doir eskirgan talqinlar zamon talablariga javob bermay qo'yganligi zamonaviy metodologiya nuqtayi nazaridan yangilanishni taqozo etadi. Har bir davrga xos mutolaa madaniyati talablarini aniqamay turib, bu borada harakat qilish usullarini empirik tarzda o'zlashtirish maqsadga muvofiq. Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, badiiy matn ustida ishlash muammosi boshlang'ich ta'limda PIRLS mezonlariga asoslanishni tazoqo etadi.

Badiiy matn ustida ishlash metodikasini o'qish kompetensiyasi va tajribasi (idrok etish, tahlil va talqin qilish) o'quvchi adabiy rivojlanishining ko'rsatkichi va natijasi sifatida baholash mumkin. Bu borada metodik shartlarni kompleks va tizimli holda amalga oshirish, tegishli o'quv-metodik majmualardan foydalanish, o'quvchilarning adabiy rivojlanishni diagnostika qilish monitoringi tizimining mavjudligi e'tiborga olinadi. Shuning barobarida zamonaviy adabiy ta'lim tizimining maqsadli strategiyalariga o'zgartirishlar kiritish, o'quvchilarning badiiy matn ustida ishlash malakasini rivojlantirish maqsadini belgilash zarur.

Yuqoridagilar asosida badiiy matn ustida ishlash metodologiyasini takomillashtirishning asosiy shartlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1) so'z san'atining organik tabiatini o'rgatish jarayonida innovatsion ta'lim strategiyalaridan foydalanish;
- 2) adabiy o'qish darslarida badiiy matnning axloqiy-estetik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish;
- 3) badiiy matn ustida ishlash darslarining maqsad va vazifalarini samarali amalga oshirish imkonini beruvchi, asarni idrok etishga doir metodik vositalar.

Badiiy matn ustida ishlash talablariga ko'ra quyidagi muammolarni hal qilish zarur:

1. Adabiy ta'lim aspektida "Badiiy matn ustida ishlash" tushunchasining mazmunini aniqlash va nazariy asoslash.
2. Ta'lim oluvchilarning o'quv, kognitiv va badiiy matnni o'qishga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash.
3. O'quvchilarning adabiy rivojlanishigaoid darslar maqsadini belgilash va amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini, kutilayotgan natijalarini, tarbiyaviy ish shakllarini aniqlash va tavsiflash.
4. Adabiy rivojlanish sohasida "Badiiy matn ustida ishlash" kursini tashkil etish va uning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish.

Badiiy matn ustida ishlash metodologiyasi – bu ko'p komponentli integratsiyalashgan va dinamik faoliyatga asoslangan bo'lib, u adabiy asarlar ustida ishlashga bo'lgan ehtiyoj, o'qish

sifati, ta'lim oluvchilarning talqin qilish kompetensiyasi va tayyorgarligi, matn bilan muloqot bosqichlaridagi faoliyati, uning natijasi badiiy matn, muallif, kitobxonning atrof-olam va o'zi bilan muloqotini tushunishga bo'lgan qonuniyat, tamoyil, metod, usul va vositalar yig'indisidir.

Badiiy matn ustida ishlash samaradorligi o'quvchilarning adabiy asarni idrok etishi uchun zarur sanalgan qobiliyatlari, asarni o'qishga qiziqish va o'qilganlar haqida muhokama uyushtirish zarurati, so'z ma'nosiga nisbatan hissiy sezgirlik, intonatsiya, nutq uslubi, qahramonlarga hamdardlik, voqelikka munosabat bildirish kabilarga ham uzviy bog'liq. Muallif obrazini o'z tasavvurida qayta gavdalantirish, muallfning qahramonlar va hodisalarga munosabatini aniqlash, o'z nuqtayi nazarini shakllantirish ham matn ustidagi ishlarning muhim elementlaridir. "Men va qahramon", "Men va do'stim – kitob", "Men va boshqa kitobxon" kabi baholovchi dialog ko'nikmasi ham bu borada muhim shartlardandir. Mutolaa qilingan asarni ifodali va sharhli o'qish, illyustratsiya, dramatizatsiya asosida matnni talqin qilish qobiliyati ham kutilgan natijalarni kafolatlaydi. Qayd etilganlar matn ustida ishlash, badiiy asarni idrok etish jarayonida shakllanadi va matnni tushunish mezonini sifatida baholanadi.

XULOSA

O'quvchilarning badiiy matn ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda eng muhim ko'rsatkich va natija – bu adabiy asarni emotsional va obrazli idrok etishdir. Buning uchun o'quvchilarning o'qishdan boshlab to o'zining ijodiy mahsulotini yaratishgacha bo'lgan metodik shartlar taqozo qilinadi.

Badiiy matn ustida ishlashda uning estetik va ma'naviy ta'sirini ro'yobga chiqarish zarur. Bunda o'quvchilarning rekonstruktiv va ijodiy tasavvurlari, so'zga sezgirlik, badiiy tilning qurli qatlamlarini o'zlashtirish yo'llarini tatbiq etish muhim sanaladi.

Xulosa qilganda, badiiy matn ustida ishlashda bir qator metodik vositalar mavjud bo'lib, ular ta'lim oluvchilarning adabiy kompetensiyalari rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular sirasiga quyidagilar kiradi:

1. Matn tabiatiga mos reproduktiv va tahliliy vazifalar: o'quv matnlari uchun; ijodiy, analitik va tadqiqot – badiiy matnlar uchun; o'quvchidagi erkin assotsiatsiya, hissiy reaksiya va yozish faoliyatiga motivatsiya beruvchi evristik usullar majmuyi.
2. O'quvchilarning badiiy matnni idrok etish darajasini nazorat qilishga qaratilgan diagnostika usullarini tizimli ravishda har bir o'quv yilida 2 – 3 marta o'tkazish.
3. Badiiy asarlarni badiiy-ma'naviy qimmatini, nutqi va til xususiyatlari, o'quvchilarning moyilliklari va dunyoqarashi asosida tanlash va hk.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kambarova S.I. Adabiyotni o'quv fani va san'at turi sifatida o'qitish metododlogiyasi. Ped. fan. dok. (DSc) ... diss. – Toshkent, 2024. – 245 b.
2. Камбарова С.И. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг мустақил мутолаа маданиятини шакллантириш технологияси. Пед. фан. фвлс. док. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2019. – 153 б.
3. Львова С.И. Настольная книга учителя русского языка. 5 – 11 классы / С. И. Львова, И. П. Цыбулько, Ю.Н.Гостева; под. ред. С. И. Львовой. – М.: Эксмо, 2007. – 496 с.
4. Матжон, С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 208 б.